

ISHOQXON IBRATNING IJTIMOYIY-MA'RIFIY FAOLIYATI VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH TO'G'RISIDA

Sevinch Ismatullayeva,

Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

E-mail: sismatullayeva152@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotining yetuk vakillaridan biri Ishoqxon To'ra Ibratning ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati haqida so'z boradi. Xususan, uning maktab va maorif tizimini isloh qilish yo'lidagi sa'y-harakatlari, zamonaviy ta'lim tamoyillarini joriy etishdagi o'rni atroflicha yoritiladi. Shuningdek, Ibratning "Lug'ati sitta al-sina" va "Jome' ul-xutut" asarlarida ilgari surilgan ma'rifiy va madaniy qarashlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maorif, analitik tovushlar, johiliyat, senzura, hammom, litografik mashina, bosmaxona, piktografik yozuv.

Аннотация. В статье анализируется социально-просветительская деятельность Исхакхона Тора Ибрата как одного из ведущих представителей джадидизма, его вклад в реформирование системы образования и внедрение современных педагогических принципов. Также с научной точки зрения рассматриваются его образовательные и культурные идеи, отражённые в трудах «Лугати ситта ас-сина» и «Джаме уль-хутут».

Ключевые слова: Образование, аналитические звуки, невежество, цензура, ванная комната, литографическая машина, типография, пиктографическое письмо.

Abstract. This article analyzes the socio-educational activities of Is'hoqkhon To'ra Ibrat as a key representative of Jadidism, focusing on his role in reforming the education system and introducing modern principles. It also examines, on a scientific basis, the educational and cultural ideas presented in his works "Lug'ati sitta al-sina" and "Jome' ul-khutut."

Key words: Education, analytical sounds, ignorance, censorship, bathroom, lithographic machine, printing house, printing house pictographic writing.

Kirish. XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda fan-ta'lim, adabiyot, san'at va maorif sohasida jiddiy yangilanishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, maorif sohasida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xalq orasida G'arb tillariga, asosan, rus tiliga ehtiyoj tobora ortib bordi. Natija, "Usuli savtiya" metodiga asoslangan hamda zamon talablariga to'laqonli mos keladigan yangi rus-tuzem, jadid maktablari nafaqat shaharlarda, balki katta qishloqlarda ham faoliyati yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1902-yilda To'raqo'rg'on qishlog'ida ham "Usuli qadim" maktablaridan tubdan farq qiluvchi, yangi "analitik tovushlar metodi"ga asoslangan "Usuli savtiya" maktabi ochildi va xalq qozisi Ishoqxon To'ra bu maktabga rahnamolik qildi.

Adabiyotlar sharhi. "Usuli hijoiya" metodi ostida 10-15 yillab maktab va madrasalarning tuprog'ini yalab tahsil olayotgan yoshlarga harflarning quruq, tushunmagan holatda yodlatilishi, ularning yozuv tugul to'g'ri va ravon o'qishiga ham katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Bu holat esa Yevropa madaniyati bilan oldindan tanish bo'lgan boshqa ziyolilar kabi Ibratni ham chuqur qayg'uga soldi. Ibrat eski ta'lim tizimini maqolalarida aks atar ekan, ularga keskin qarshi chiqdi va "analitik

tovushlar metodi”ga asoslangan yangi o‘quv uslubini qabul qilishni targ‘ib qildi. U maqolalarida maktab muammosi masalalarini ilgari surar ekan, shunchaki qog‘ozlarda bayon etishni istamadi va ma’rifatparvar sifatida yangi maktab tashkil etdi. Biroq bu maktab faoliyati uzoqqa bormadi. Johiliyat ortidan ergashib yuruvchi ayrim mutassiblar an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq Yevropa va rus ta’limida qo‘llaniladigan tovushlardan foydalanishni diniy-islomiy an’analarga zid deb hisoblab, “kofirlar maktabi” deb atadilar va general-gubernatorlik ma’muriyati orqali maktabni yoptirdilar. Bu hodisa Ishoqxon hamda mutaassiblar o‘rtasidagi ilk to‘qnashuv bo‘lishiga qaramay u ortga chekinmadi va 1907-yilga kelib, ikkinchi marotaba bepul “Usuli jadid” maktabini ochdi. Bu maktabda o‘g‘illari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxon hamda 50 nafar qishloq bolalarini “Ishoqiya” bog‘ida joylashgan katta binoda, yangicha o‘quv qurollari, asbob-uskunalar, jumladan, daftar, qalam, doska, stol-stul va shu kabi jihozlar asnosida o‘zi tuzgan dastur orqali o‘qitdi. Ibratning haftalik dasturiy jadvaliga ko‘ra bolalar har 40 minutda o‘qitilib 10 minut tanaffusda Ishoqiya bog‘ida dam olib, o‘zlari olib kelgan yeguliklarni tanovvul qilishgan. Bu haqida Ibratning shogirdi hamda ushbu maktabda o‘qituvchilik qilgan Mirzaboy G‘iyosov shunday deydi: “Biz o‘qituvchilar, maktabga oldindan tuzib qo‘yilgan haftalik dars jadvali bo‘yicha darslarga tayyorlanib kelar edik. O‘quvchilar hamma vaqt o‘qituvchilar e’tiborida bo‘lar edilar. Bu tartibga hamma bo‘ysunushga majbur edi. Ishoqxon Ibrat hamma o‘qituvchilarni ham nazorat qilar edi” [1:90]. Mirzaboy G‘iyosovning aytishicha, boshqa jadid maktablaridan farqli ravishda Ibrat darsliklarning nomini emas, ularga oid o‘quv predmetlarining nomini ko‘rsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ibrat maktab darsliklarini tashkil etishda Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Aliasqar Kalinning “Muallimi soniy”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi qo‘llanmalaridan yetarlicha foydalanadi. Ayniqsa, o‘zi tartib bergan arabcha, forsha, hindcha, turkcha, sartcha va ruscha tillarni o‘z ichiga oluvchi 6 tildagi “Lug‘ati sitta al-sina” nomli lug‘at kitobi o‘quvchilarning ilm olishi uchun dasturulamal vazifasini bajardi.

Natija va tahlillar. Mazkur davrda nafaqat maorif sohasida, balki zamon bilan hamnafas yashashda, dunyoviy bilim va ilmlardan boxabar bo‘lish uchun ham ko‘p tillarni bilishga ehtiyoj baland edi. Afsuski, rus hamda boshqa chet tillarini o‘rganish uchun Toshkent kutubxona va kitob do‘konlarida lug‘atlar soni yetarli emas edi. Toshkentdagi kitob do‘koni ho‘jayinlaridan birining “Turkestanskiye vedomosti” gazetasida e‘lon qilingan quyidagi so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. “Shu kunlarda shaharliklar o‘rtasida rus tiliga qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Toshkent kitob do‘koni ho‘jayinlaridan biri shikoyat qilyaptiki, “sartlar (o‘zbeklar) hech tinchlik bermayapti, ruscha o‘rganish uchun sart tilida yozilgan biror darslik bormi?” - deb so‘rab kelaverib jonga tegdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yerli o‘troq aholining til o‘rganishga qobiliyati kuchli” [2:9]. Rus

tilidan tashqari yana o'nga yaqin G'arb va Sharq tillari mukammal biladigan Ibratning ham lug'at tartib berishining ijtimoiy zarurati shundan edi.

“Lug'ati sitta al-sina” asari XIX asrning 90-yillariga yozilgan bo'lsa-da, 1901-yilda nashrga bosildi. Ushbu lug'at mahalliy mualliflarning qattiq ta'qibga olinishi va chor Rossiyaning Turkiston o'lkasi ustidan olib borgan qattiq senzurasini tufayli 11 yil o'tib nashr etildi. Asarning eng katta yutug'i uning qo'llanma holda qo'ldan - qo'lga o'tib ziyolilar orasida ko'chirib olinishiga muvaffaq bo'lishi edi. O'sha davrda rus va Yevropa tillarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish bo'lsa-da, Ibrat millatiga birinchi bo'lib yordam qo'lini cho'zgan holda “Olti tili lug'at” kitobi tarkibidagi rus yozuvlarini ham arab yozuvida ifodalashning muvaffaqiyatli uddasidan chiqdi. Mingdan ortiq lug'atni o'z ichiga oluvchi 2 qismdan iborat 53 sahifali ushbu kitob ming nusxada chop etildi va bir yilga bormasdan xalq o'rtasida tarqab ketdi.

Mustaqillik yillarida “Lug'ati sitta al-sina” asari bo'yicha U.Dolimov, N.Jabborov, A.Madvaliyev, Y.Saidov, S.Normatov kabi ustoz olimlar o'zlarining bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi. Jumladan, Madvaliyev “Lug'ati sitta al-sina” asari bo'yicha maqolalarida asarning 7 ta mavzudan tashkil topganligini va arabcha, forsch, turkcha, hindcha, sarcha, ruscha lug'atlar shaklida 6 ustun qilib berganligini yozadi.

Ishoqxon Ibrat 20 yil mobaynida To'raqo'rg'on va Namanganda xalq qozisi lavozimida faoliyat yuritdi. Musulmonlik dinida ma'nan va jismonan poklikni muhim ekanligini yaxshi bilgan Ibrat To'raqo'rg'onida Yevropacha usulda tashkil topgan bir hammom qurdiradi. Qancha mehnat, mashaqqat, iqtisodiy xarajatlar bilan bunyod etilgan bu hammomni mutassiblar “harom” deb e'lon qiladilar. Natijada, sodda va ishonuvchan xalqning hammomdan voz kechishi uning bir necha yil bekor qolib ketishiga sabab bo'ladi. Ibratning 1908-yilda amalga oshirgan Moskva hamda Peterburgdagi sayohati uni Gaufman ismli matbaachi bilan uchrashtirdi. Bu uchrashuv natijasida amalga oshirilgan islohotlar Turkiston tarixida o'chmas iz bo'lib qoldi. U Gaufmandan 10 yil bo'lab to'lash evaziga litografik mashina sotib oldi. Mashinani har qanday qiyinchilik bo'lmasin Orenburgdan Qo'qonga poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarga olib keldi. Bir necha yildan buyon bekor yotgan hammomning o'rniga bosmaxona tashkil etdi va “Matbaai Ishoqiya” nomi ostida ishga tushirdi. “Matbaai Ishoqiya” chopxonasi chekka qishloqda bunyod bo'lishiga qaramay Turkistonning maorif, ta'lim, ma'rifat sohalaridagi katta yutug'i bo'ldi. Matbaa ishlarida Husayn Makayev va Abdurauf Shahidiylar Ishoqxon bilan birgalikda faoliyat olib borishdi va bu haqida “Vaqt”, “Tarjumon” gazetalarida maqolalar e'lon qilindi. Ibratning chopxona tashkil etishidan asosiy maqsad ilm-ma'rifatni yoyish edi. Uning matbaa peshtoqida, nur sachrab turgan quyosh ichida “ilm” so'zini yozdirishi ham buning isbotidir. Chopxonada ilk marotaba Ibratning xattot Mirrajab Bandiy bilan hamkorlikda tuzilgan “San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” savod chiqarishga bag'ishlangan asari nashrga chiqdi. Ushbu ilmiy asar jadid va qadim

maktablarda savod chiqarish, husnixat o‘rganishga qaratilgan “Mufradot” vazifasini bajardi. Chopxona faoliyatining keyinchalik Namanganga ko‘chirilishi kitob do‘konlari va bozorlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Sho‘rolar davrining dastlabki yillaridayoq chopxona musodara qilindi va “Matbaai Ishoqiya” nomi olib tashlab “Udarnik” nomi bilan faoliyat olib bordi.

Ibratning jahon yozuvlarining eng ibtidoiy piktografik yozuvlardan tortib, XX asr boshlarining eng mukammal yozuvlarini o‘zida qamrab olgan “Jome’ ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) nomli ilmiy asari ham mashhur chopxonada bosib chiqarilgan. Quyida undan namuna berildi:

دست‌آورد و دست‌نویس‌های کتب را اصلی اولی بول خط‌ایید
یا میبیت او قوب موندن تا قان کن ایکن

یونانیچه‌خالی

Греческий

A a	Α α	Ξ ξ	Ω ω	Η η
B b	Β β	Ο ο	Ϛ ϛ	Θ θ
Γ γ	Γ γ	Π π	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
Δ δ	Δ δ	Ρ ρ	Ϡ ϡ	Ϣ ϣ
E e	Ε ε	Σ σ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
Z z	Ζ ζ	Τ τ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
H h	Η η	Χ χ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
Θ θ	Θ θ	Φ φ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
I i	Ι ι	Χ χ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
K k	Κ κ	Ψ ψ	Ϝ ϝ	Ϟ ϟ
Λ λ	Λ λ	Ω ω		
M m	Μ μ			
N n	Ν ν			

ببول ایله یونانی خالی قلمی خط‌لار تهرتیبده بوکار یازیلان
پارویب اولور یا یازیلان خالی قلمی خط‌لار تهرتیبده بوکار یازیلان

Юнон ёзуви

41 xil yozuv haqida ma’lumot beruvchi ushbu ilmiy asarda arab yozuvining suls, tavqe’, rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllariga to‘xtalib o‘tadi va ularning xususiyat san’atiga oid fikrlarni bildirib o‘tadi. Ibrat ushbu asarni yaratishda Farg‘ona vodiysining eski yozuv bitiklari, masjid, madrasa, tanga va qabrtoshlarga o‘yib yozilgan manbalardan yetarlicha foydalanadi va o‘zi yashab turgan zamonada ilg‘or ilm-fanning kirib kelishi, maorif hamda madaniyatning taraqqiy topishini mazkur asarida zo‘r mamnuniyat bilan qayd qiladi. 132 sahifadan iborat ushbu ilmiy asar nafaqat o‘zbek matbuotchiligi, madaniyat sohalarida, balki jahon yozuvlar tarixini o‘rganishda ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ibratning ijtimoiy-siyosiy hamda maorif, madaniyat sohalarida olib borgan serqirra faoliyati bugungi kun yosh avlodning ma’naviy

tarbiyalanishi, ularning yuksalishiga samarali xizmat qildi. Uning qilgan xizmatlari shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tirof etildi va To'ra'qo'rg'onda Ibratga atab zamonaviy bog' yaratilib, yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Shuningdek, maktab va internetlarda amalga oshiriladigan dars mashg'ulotlar Ibrat tomonidan tuzilgan dasturiy metodlarga asoslangan holda olib borish kerakligi alohida ta'kidlandi.

Umuman, Ishoqxon Ibrat qoldirgan ilmiy va adabiy meros, allomaning ma'rifatparvarligi hamda ijodiy faoliyati o'zbek ilm-fani va adabiyotimiz xazinasini boyitishi bilan birga bugungi kun ilmtalab yoshlari uchun ham mukammal ibrat maktabi vazifasini bajarishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dolimov U. Ishoqxon To'ra Ibrat.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.- 180 b.
2. Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar.-Toshkent: Ma'naviyat, 2020.- 200 b.
3. Ishoqxon Ibrat. Lug'oti sitta al-sina.-Toshkent: Ilyin tipografiyasi, 1901.- 68 b.
4. Madvaliyev A. Ishoqxon Ibratning olti tilli lug'ati // O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent: 2017. - B. 53-56.
5. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. -Toshkent: Ma'naviyat, 2004. -457 b.